

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**


**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“KELISHILDI”**

Nizomiy nomidagi TDPU  
rektori  A.Yu.Umarov  
2020-yil “ 25 ” U.10.16



**“TASDIQLAYMAN”**

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim  
vazirligi   
2020-yil “ 25 ” U.10.16



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONLARI  
(kunduzgi va sirtqi bo‘lim uchun)**

**QALAMTASVIR, RANGTASVIR  
o‘quv fanlari**

**5110800 – Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi  
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi uchun**

Dastur Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2020-yil 18-iyundagi 11-sonli majlis bayoni).

**Tuzuvchilar:** **R.Sh. Xalilov** - Nizomiy nomidagi TDPU Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, dotsent  
**D.J.Tulanova** - Nizomiy nomidagi TDPU Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi kafedrasini dotsenti v.b.  
**X.E.Sultonov** – Chichiq DPI Tasviriy san'at kafedrasini dotsenti

**Taqrizchilar:** **R.Z.Bobomurodov** - TAQI Qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik kafedrasini dotsenti  
**S.S.Bulatov** - Nizomiy nomidagi TDPU Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi kafedrasini professori, p.f.d.

## I. Kirish

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabrdagi "Respublika oily ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3389-son Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 261-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

5110800 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. 5110800 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonda tasviriy san'at asosi bo'lgan qalamtasvir yoki rangtasvir (abituriyent qaysi fandan topshirishni o'zi tanlaydi) fanlaridan amaliy ish bajarib, o'z bilimlarini namoyon etadi. Bajariladigan amaliy ishlar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

## II. Kasbiy (ijodiy) imtihonning maqsadi va vazifalari

**Qalamtasvir yoki rangtasvir** fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning tasviriy san'at sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy ishlar bajaradi:

**1. Qalamtasvir yoki rangtasvir.** Tasviriy san'at nazariyasi asosida natyurmortning o'zaro nisbati, perspektivasi qonuniyatlari, kompozitsiya tuzilishi, yorug' va soya tushunchalari negizida gipsli geometrik jism, uy ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlar sidirg'a mato fonida o'ziga qarab tasviri qalamda bajariladi.

## III. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

**1. Abituriyentdan qalamtasvir yoki rangtasvir fanidan natyurmortni qog'ozga to'g'ri joylashtirish, ufq chizig'i, buyumlarning o'zaro nisbati, buyumlarning tayanch nuqtalarini to'g'ri topish, narsalar tekisligini to'g'ri aniqlay olish, naturadagi buyum hajmlarini to'g'ri aks ettirish, perspektiva qonuniyatlariga rioya qilish, buyumlardagi soya va yorug'larni to'g'ri aniqlay olish hamda buyumlarning fakturasini (gips, sopol, metall, mato, va h.k.) topish talab etiladi.**

Abituriyent jadval bo'yicha belgilangan bir kunda 1 astronomik soat (60 daqiqa) vaqt davomida grafik ish bajaradi. Qalamtasvir yoki rangtasvir fani bo'yicha ish A3 formatdagi qog'ozda bajariladi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: bajarilgan ish imtihon komissiyasi tomonidan bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab 10 ta mezon asosida baholanadi. Abituriyentga qo'yilgan ballar qaydnomaga qayd etiladi.

#### IV. QALAMTASVIR YOKI RANGTASVIR

No	Mezonlar	Maksimal ball
1	Natyurmort qog'ozga to'g'ri joylashtirilgani	0-19 gacha
2	Ufq chizig'i to'g'ri topilgani	0-19 gacha
3	Buyumlarning o'zaro nisbati to'g'ri topilgani	0-19 gacha
4	Narsalarning tekisligi to'g'ri aniqlangani	0-19 gacha
5	Naturadagi buyum hajmlari to'g'ri aks ettirilgani	0-19 gacha
6	Perspektiva qonuniyatlariga rioya qilingani	0-19 gacha
7	Buyumlardagi soya va yorug'lar to'g'ri aniqlangani	0-19 gacha
8	Buyumlarning fakturasi (gips, sopol, metall, mato, va h.k.) aks ettirilgani	0-19 gacha
9	Ishning umumlashtirilganligi	0-18 gacha
10	Qo'yilgan vazifa to'liq bajarilgani	0-19 gacha

Qalamtasvir bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ballarning umumiy miqdori – **189 ball**

#### V. Kasbiy (ijodiy) imtihonni o'tkazish tartibi

5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunda 1 astronomik soat (60 daqiqa) vaqt davomida fanidan natyurmort qo'yilmasini bajaradi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 20-30 nafar abituriyentdan iborat bo'lib, kasbiy (ijodiy) imtihon guruhlar bo'yicha o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar molbert bilan jihozlangan tasviriy san'at xonalarida o'tkaziladi.

**Qalamtasvir yoki rangtasvir.** Tasviriy san'at nazariyasi asosida natyurmortning o'zaro nisbati, kuzatish perspektivasi qonuniyatlari, kompozitsiya tuzilishi, yorug' va soya tushunchalari negizida sidirg'a mato fonidagi gipsli geometrik jism, uy-ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlarning o'ziga qarab qalamda yoki akvarel bo'yog'ida bajariladi.

Ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: qalamtasvir yoki rangtasvir fani bo'yicha ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, 10 mezon asosida baholanadi.

Fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolaridan tashkil etadi va ular shu ta'lim yo'nalishiga kadrlar tayyorlovchi kafedralar professor - o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

Sopolar 100 dan 200 gacha  
Kritikum ulgan

## **VI. Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan vaqtdan boshlab 24 soat davomida yozma murojaat qilishi mumkin. Murojaat faqat o'z ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.